



O‘ZBEK TILIDAGI OGOHLANTIRUVCHI YO‘L BELGILARGA OID TERMINLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATI

Xo‘shbaqova Nasiba Nurqobil qizi,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243774>

Anotatsiya: Maqolada O‘zbek tilidagi ogohlantiruvchi yo‘l belgilari terminlarining leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ogohlantiruvchi belgilar transport vositalari va piyodalar harakatining xavfsizligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Masalan: “Svetofor”, “chorraha”, “ko‘tarma ko‘prik”, “xavfli burilish”, “sirpanchiq yo‘l”, “noteks yo‘l” kabi terminlar yo‘l infratuzilmasi va xavfli sharoitlar haqida aniq ma‘lumot beradi. Bu terminlar nafaqat yo‘l harakati qoidalarini tushunishda, balki tilning leksik-semantik boyligini o‘rganishda ham muhim manba hisoblanadi. Maqolada terminlarning tarkibi, ma‘nolari va ularning qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: termin, leksik-semantik, ogohlantiruvchi belgilar, yo‘l, ma‘no.

Yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashda ogohlantiruvchi yo‘l belgilari muhim rol o‘ynaydi. Ular haydovchilar va piyodalarni yo‘lda kutayotgan xavflar haqida ogohlantirib, ularning xatti-harakatlarini to‘g‘ri yo‘naltirishga yordam beradi. O‘zbek tilidagi ogohlantiruvchi yo‘l belgilari terminlari ham tilning leksik-semantik xususiyatlarini aks ettiruvchi noyob misollar hisoblanadi. Bu terminlar nafaqat yo‘l harakati qoidalarini tushunish uchun, balki tilning o‘ziga xosliklarini o‘rganishda ham muhim manba hisoblanadi. Ushbu maqolada O‘zbek tilidagi ogohlantiruvchi yo‘l belgilari terminlarining leksik tarkibi, semantik xususiyatlari va ularning qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Bu orqali yo‘l belgilari terminlarining tilshunoslik jihatidan qanday ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatiladi.

Bugungi kunga qadar ko‘plab tadqiqotchilar ushbu sohada son-sanoqsiz ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Biroq, ko‘p tadqiqotlar amalga oshirilganiga qaramay, hali ham bajarilishi kerak bo‘lgan ishlar anchagina ko‘p deyish mumkin. Chunki til – bu doimiy o‘zgaruvchan hodisa bo‘lib, vaqt o‘tgani sayin rivojlanib va yangilanib boradi. Shu sababli, tilshunoslikda terminologiya sohasiga qaratilgan ilmiy ishlar ham katta miqdorda amalga oshirilmoqda. Ammo ba‘zi sohalarga oid terminlar bo‘yicha yetarli darajada ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Xususan, o‘zbek tilidagi yo‘l belgilari terminologiyasi bu sohalardan biri hisoblanadi, chunki bu sohaga oid terminlar bo‘yicha juda kam tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shuning uchun biz ushbu sohaga oid terminlarni o‘rganishga harakat qildik [1]. Ogohlantiruvchi yo‘l belgilari transport vositalari va piyodalar harakatining xavfsizligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu belgilar haydovchilarni yo‘lda kutayotgan xavflar haqida ogohlantirib, ularning xatti-harakatlarini to‘g‘ri yo‘naltirishga yordam beradi. O‘zbek tilidagi ogohlantiruvchi yo‘l belgilari terminlari nafaqat yo‘l harakati qoidalarini tushunish



uchun, balki tilning leksik-semantik xususiyatlarini o‘rganishda ham muhim manba hisoblanadi [3].

Masalan:

Svetofor – ruscha “светофор” so‘zidan olingan bo‘lib, “yorug‘lik” va “tashish” ma’nolarini anglatadi. *Yorug‘lik + tashish* ya’ni *yorug‘lik signali*. Bu belgi transport vositalari va piyodalar harakatini tartibga solish uchun mo‘ljallangan signal qurilmasini bildiradi.

Chorraha – “chor” [to‘rt] + “raha” [yo‘nalish], *to‘rt yo‘nalish* ya’ni *to‘rt tomondan yo‘llar kesishgan joy*. Asosan bu belgi ikki yoki undan ortiq yo‘llarning kesishgan joyini bildiradi.

Ko‘tarma ko‘prik – “ko‘tarish” [yuqoriga ko‘tarish] + “ko‘prik” [yo‘l ustidagi qurilma]. *Ko‘tariladigan ko‘prik* ya’ni *ko‘tariladigan yo‘l ustidagi qurilma* ma’nosini ifodalab ko‘tariladigan ko‘prik mavjudligini bildiradi.

Sohilga chiqish. **Sohil** – suv havzasi [*dengiz, ko‘l*] *qirg‘og‘i*, **chiqish** – *bir joydan ikkinchi joyga harakatlanish*. Sohilga chiqish -*suv havzasiga chiqish joyi* ma’nosini bildiradi.

Xavfli burilish. **Xavfli** – *xavf tug‘diruvchi*, **burilish** – *yo‘nalishni o‘zgartirish*. *Xavf tug‘diruvchi yo‘nalish o‘zgarishi* ya’ni *yo‘lda xavfli burilish mavjudligini* bildiradi.

Tik nishablik. Tik – *vertikal yoki qiyalik*, **nishablik** – *qiyalik holati* ya’ni tik nishablik yoki tik qiyalik. Bu belgi yo‘lda tik qiyalik mavjudligini bildiradi. Tik nishablik bu belgi pastlik va nishablik oldida o‘rnatilib, ichidagi raqam nishablikning 100 m uzunlikka tug‘ri keladigan pasayishini foiz hisobida ko‘rsatadi.

Sirpanchiq yo‘l. Sirpanchiq – *sirpanish xususiyati*, **yo‘l** – *transport vositalari harakatlanish joyi*. Bu belgi yo‘lda sirpanchiq joylar mavjudligini bildiradi.

Noteks yo‘l. Noteks – *no [yo‘q] + teks [tekis]*, **yo‘l** – *transport vositalari harakatlanish joyi*. *Noteks yo‘l -tekis bo‘lmagan yo‘l* ya’ni *yo‘lda notekisliklar mavjudligini* bildiradi.

Yo‘lning torayishi. Yo‘l – *transport vositalari harakatlanish joyi*, **torayishi** – *torayish holatini* bildirib, *yo‘lning torayib borayotganligi* haqida ogohlantiradi.

Bolalar – *yosh odamlar*. Bu belgi yo‘l atrofida bolalar harakati mumkinligini bildiradi.

Ta‘mirlash ishlari. Ta‘mirlash – *ta‘mirlash*, **ishlar** – *faoliyat*. Bu belgi yo‘lda ta‘mirlash ishlari olib borilayotganligini bildiradi.

Mol haydab o‘tish. Mol – *qishloq xo‘jaligi hayvonlari*, **haydab o‘tish** – *hayvonlarni boshqarish, hamda yo‘lda mol haydab o‘tayotganligini* bildiradi.



Yovvoyi hayvonlar. *Yovvoyi – tabiatda erkin yashovchi, hayvonlar – jonivorlar.* Bu belgi yo‘l atrofida yovvoyi hayvonlar paydo bo‘lishi mumkinligini bildiradi.

Yonlama shamol. *Yonlama – yon tomondan, shamol – havo oqimi va yo‘lda kuchli yonlama shamol esayotganligini bildiradi.*

Boshqa xavf-xatarlar. *Boshqa – boshqa, xavf-xatarlar – xavfli holatlar, ya’ni bu belgi yo‘lda boshqa xavfli holatlar mavjudligini bildiradi.*

Sun‘iy yo‘l notekisligi. *Sun‘iy – sun‘iy, yo‘l notekisligi – yo‘ldagi notekisliklar.* Bu belgi yo‘lda sun‘iy notekisliklar mavjudligini bildiradi.

Tirbandlik – tirbandlik. Bu belgi yo‘lda tirbandlik mavjudligini bildiradi. Ushbu yo‘l belgisi vaqtinchalik yoki tasviri o‘zgaradigan holatda tirbandlik hosil bo‘lgan yo‘l yoki chorrahaga kirish oldidan yo‘lni yoki chorrahani aylanib o‘tish imkoniyati bo‘lgan joyga o‘rnatiladi.

Sun‘iy yo‘l notekisligi. *Yo‘lning sun‘iy notekislik o‘rnatilgan qismiga yaqinlashayotganligi to‘g‘risida ogohlantiradi.* Transport vositasining harakatlanish tezligini majburiy tarzda kamaytirish uchun qo‘llaniladi [2].

Ogohlantiruvchi yo‘l belgilari terminlari transport vositalari va piyodalar harakatining xavfsizligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu terminlar nafaqat yo‘ldagi xavfli holatlar haqida ogohlantiradi, balki tilning leksik-semantik boyligini ham namoyon etadi. “Svetofor”, “chorraha”, “ko‘tarma ko‘prik”, “xavfli burilish”, “sirpanchiq yo‘l”, “noteks yo‘l” kabi terminlar yo‘l infratuzilmasi va xavfli sharoitlar haqida aniq ma‘lumot beradi. Shuningdek, “bolalar”, “ta‘mirlash ishlari”, “mol haydab o‘tish”, “yovvoyi hayvonlar” kabi belgilar yo‘l atrofidagi muayyan sharoitlarni bildirib, xavfsizlikni ta‘minlashga yordam beradi. Umuman olganda, ogohlantiruvchi belgilar terminlari nafaqat yo‘l harakati xavfsizligini oshirishda, balki tilning noyoblighi va boyligini saqlashda ham muhim ahamiyatga ega. Bu terminlarni to‘g‘ri tushunish va qo‘llash orqali haydovchilar va piyodalar uchun xavfsiz harakat sharoitlari yaratish mumkin. Ogohlantiruvchi belgilar terminlarini o‘rganish va ularni qo‘llash yo‘l harakati qoidalarini yanada samarali va tushunarli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xo‘shbaqova, N. [2024]. Ingliz va o‘zbek tillarida yo‘l belgilariga oid termin birikmalarining struktur-semantik xususiyati. *Tamaddun nuri jurnali*, 11[62], 251-253.
2. Soliyev R.X., Xolmirzayev J.Z., Nasriddinov A.Sh. Yo‘l harakati qoidalari va harakat xavfsizligi asoslari. O‘quv qo‘llanma. 2020
3. <https://azkurs.org/-aholi-yashamaydigan-joylarda-150--300-metr-a.html?page4>